



MAHALLA INSTITUTINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASIDAGI O'RNI VA HUQUQIY MAQOMI

Eshimbetov Rustam Kamilyevich

IIV Akademiyasi magistratura "Tashkiliy-taktik boshqaruv"
mutaxassisligi tinglovchisi"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19706234>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 19-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 21-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 23-aprel 2026 yil

KEYWORDS

mahalla instituti, huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy maqom, jamoat tartibi, profilaktika inspektori, ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik jamiyati, huquqiy targ'ibot, jamoat nazorati, qonunchilik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalla institutining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'rni, uning jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy ahamiyati hamda huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Shuningdek, mahallaning aholi o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishdagi ta'sirchan mexanizmlari, davlat organlari bilan hamkorligi va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi roli yoritib beriladi. Maqolada amaldagi qonunchilik asosida mahalla instituti faoliyatining o'ziga xos jihatlari va uni takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston sharoitida mahalla instituti nafaqat ma'muriy-hududiy birlik, balki asrlar davomida shakllangan, o'ziga xos ijtimoiy nazorat va tarbiya mexanizmlariga ega bo'lgan noyob fuqarolik jamiyati instituti hisoblanadi. Ushbu institut jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va totuvlik muhitini mustahkamlash, shuningdek, turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi ham aynan milliy tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarga tayanib shakllangan bo'lib, bu jarayonda mahalla institutining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, mahalla fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlashda samarali ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu jihatdan, mahalla institutini jamiyatda o'ziga xos "ijtimoiy immunitet"ni shakllantiruvchi, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi hamda fuqarolik jamiyati institutlari tizimida muhim o'rin egallovchi samarali profilaktik subyekt sifatida baholash mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashtirish jarayonlari jadallashib, turli zamonaviy tahdid va xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bir davrda jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat jazolashga qaratilgan yondashuvlar bilan cheklanib qolish yetarli emasligi namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, huquqbuzarliklarning kelib chiqish

sabablarini bartaraf etishga yo'naltirilgan ijtimoiy profilaktika mexanizmlarini keng joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu borada "mahalla yettiligi" tizimining amaliyotga tatbiq etilishi hamda profilaktika inspektorlari faoliyatining yangi yondashuvlar asosida takomillashtirilishi davlat boshqaruvi tizimidagi muhim institutsional islohotlardan biri sifatida baholanadi.

Shuningdek biz, jamoat tartibini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari ham tahlil qildik. Xususan, Amir Temur davrida faoliyat yuritgan mirshablik va posbonlik an'alaridan boshlab, mustaqillik davrida 1999-yilda tashkil etilgan "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmalari, 2021-yilda joriy etilgan "Mahalla huquq-tartibot maskanlari" konsepsiyasi hamda 2023–2024-yillarda shakllantirilgan "mahalla yettiligi" integratsiyalashgan tizimigacha bo'lgan evolyutsion jarayonlar qamrab olinadi. Shu bilan birga, har bir bosqichda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, ularning amaliy samaradorligi hamda jamiyat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni atroflicha o'rganiladi.

O'zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini kafolatlash masalalari har doim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Bu borada Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat boshqaruvi tizimi hamda uning "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan huquqiy g'oyalar zamonaviy milliy profilaktika tizimining tarixiy va nazariy asoslaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

"Temur tuzuklari" nafaqat tarixiy yoki harbiy qo'llanma, balki XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan yuksak huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatning muhim manbasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Sohibqiron davlatni boshqarishda "Kuch — adolatda" degan tamoyilga amal qilib, jinoyatchilikka qarshi kurashishda qonun ustuvorligi, jazoning muqarrarligi va adolat prinsiplarini asosiy mezon sifatida belgilagan.

Amir Temurning jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosatini bir necha asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

Birinchidan, davlatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida aholini tashqi tahdidlardan hamda ichki zo'ravonlik va adolatsizliklardan himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tuzuklarda keltirilgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va zulmga qarshi kurashish haqidagi fikrlar davlat rahbarining adolatni ta'minlovchi asosiy subyekt sifatidagi rolini ko'rsatadi [1].

Ikkinchidan, o'g'rilik, bosqinchilik va boshqa zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarga nisbatan qat'iy choralar belgilangan bo'lib, jazoni qo'llashda nafaqat davlat qonunlari, balki shariat qoidalari hamda mahalliy urf-odatlariga ham amal qilingan.

Uchinchidan, Amir Temur jinoyatchilikni kamaytirishda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish muhim omil ekanligini ham inobatga olgan. Xususan, kam ta'minlangan qatlamlarni moddiy qo'llab-quvvatlash, harbiylarga o'z vaqtida maosh to'lash orqali korrupsiya va talon-torojlik holatlarining oldini olishga intilgan.

Temuriylar davrida jamoat tartibini saqlash ishlari tasodifiy yoki tartibsiz tarzda emas, balki aniq vazifalar taqsimoti asosida yo'lga qo'yilgan davlat xizmati sifatida tashkil etilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, shahar va qishloqlarda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mirshablar, posbonlar hamda yasog'liqlar kabi maxsus tuzilmalar faoliyat olib borgan [2].

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, milliy qadriyatlarni tiklash va milliy o'zlikni anglash jarayonida mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati yana-da mustahkamlandi.

1999-yil mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda muhim burilish davri sifatida tarixda qoldi. Xususan, 1999-yil 16-fevral kuni sodir bo'lgan voqealar davlat xavfsizlik tizimini, ayniqsa, joylardagi profilaktik ishlar samaradorligini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu asosda 1999-yil 19-aprelda Vazirlar Mahkamasining 180-son qarori qabul qilinib [3], unda jazoni o'tab qaytgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmalari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar tasdiqlandi.

"Mahalla posboni" tuzilmasi zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatilgan bo'lib, jumladan, mahalla hududida, ayniqsa tungi paytlarda navbatchilikni tashkil etish, profilaktika inspektorlariga huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlashda ko'maklashish hamda "O'z uyingni o'zing asra" tamoyili asosida aholining daxldorlik hissini kuchaytirish shular jumlasidandir. Shu bilan birga, "Mahalla posboni" tizimi o'z davri uchun muhim yangilik bo'lganiga qaramay, posbonlarning asosan jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi, kadrlar qo'nimsizligi hamda ularning huquqiy maqomi professional darajada mustahkamlanmaganligi sababli tizimli muammolar yuzaga chiqa boshladi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mahalla instituti hamda ichki ishlar organlari faoliyatini isloh qilishning yangi bosqichi boshlandi. Bu borada 2021-yil 26-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son Farmoni[4] jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari va huquqiy maqomi qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan qat'iy mustahkamlangan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va o'z vakolatlari doirasida mustaqil ekanligi belgilangan.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq, mahalla huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etuvchi asosiy subyektlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'rni va asosiy funksiyalari:

Ijtimoiy nazorat va barvaqt aniqlash: Mahalla faollari o'z hududidagi har bir oilaning ijtimoiy-ma'naviy holatidan, fuqarolarning turmush tarzidan bevosita xabardor bo'ladi.

Mediatsiya (Yarashtiruv) funksiyasi: Oilaviy-maishiy va qo'shniqchilik nizolarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yetib bormasdan, jamoatchilik ta'siri orqali ijobiy hal etish mahallaning eng samarali profilaktik vositasidir.

Ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashtirish: Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoki probatsiya hisobida turgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirishda mahallaning kafillik instituti o'ta muhim ahamiyatga ega.

Ilgari ichki ishlar organlari tayanch punktlari negizida Mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etildi. Mahallalar jinoyatchilik darajasi bo'yicha uch toifaga ajratildi:

"Yashil" mahallalar: Jinoyatchilik darajasi past yoki barqaror tinch hududlar.

"Sariq" mahallalar: Huquqbuzarliklar xavfi mavjud bo'lgan hududlar.

"Qizil" mahallalar: Og'ir jinoyatlar sodir etilgan, kriminogen vaziyat murakkab hududlar.

Mahalla tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomida 2023-yil oxirida quyi bo'g'inlarda tub o'zgarishlar amalga oshirildi. 2023-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-209-son Farmoni qabul qilindi [5]. Bu farmon bilan "mahalla beshligi" tizimi kengaytirilib, "Mahalla yettiligi" shaklida yangi konfiguratsiya joriy qilindi. Yangi tizimning muhim jihati — faoliyatni baholash mezonlarining (KPI) aniq belgilanishidir. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi 292-son qaroriga muvofiq [6], "mahalla yettiligi" a'zolarining faoliyati baholash mexanizmi takomillashtirildi.

Biroq, huquqbuzarliklar profilaktikasi prizmasidan qaraganda, ushbu tizimda o'ziga xos "vakolatlar to'qnashuvi" va mas'uliyatning mavhumlashuvi (diffuziyasi) kuzatilmoqda. Amaliyotda har bir subyekt muammoni boshqasining vakolati doirasiga o'tkazib yuborish holatlari jarayonning haddan tashqari byurokratlashuviga olib kelmoqda. Oqibatda, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatning sabablari bartaraf etilmasdan, faqat oqibati bilan kurashish amaliyoti saqlanib qolmoqda.

Mahallalarni kriminogen vaziyatiga ko'ra toifalarga ajratish tizimi qonunchilikdagi profilaktika mexanizmining o'ziga xos "sadoqat dilemmasi"ni keltirib chiqaradi. Agar mahallada huquqbuzarlik qayd etilsa, uning "yashil" maqomi yo'qoladi. Ilmiy jihatdan bu juda xavfli tendensiyani – latent (yashirin) jinoyatchilikning sun'iy ravishda oshishini stimullaydi. Mahalla faollari reytingni tushirmaslik maqsadida, oilaviy zo'ravonliklar kabi holatlarni rasmiylashtirmasdan, ichki yarashtiruv yo'li bilan yopib yuborishga harakat qiladilar. Natijada huquqbuzar o'zining jazolanmasligiga ishonch hosil qiladi va bu kelgusida og'irroq jinoyatlarning sodir etilishiga olib keluvchi kriminogen "bomba"ga aylanadi.

Kriminogen vaziyati murakkab hududlarda profilaktikaning eng zaif bo'g'inlaridan biri bu – viktimologik profilaktika (potensial jabrlanuvchilar bilan ishlash) hisoblanadi. Mahalla instituti o'zining tabiati e'tiboridan potensial jabrlanuvchilarni aniqlash uchun eng qulay maydon hisoblanadi. Lekin amaldagi qonunchilikda mahallaning ushbu yo'nalishdagi vakolatlari aniq ifodalanmagan. Himoya orderini berish vakolati faqat ichki ishlar organlariga tegishli bo'lib, mahalla oqsoqoli yoki xotin-qizlar faoli jabrlanuvchini izolyatsiya qilish yoki unga nisbatan huquqiy himoya chorasini mustaqil ravishda faollashtirish huquqiga ega emas.

Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston sharoitida mahalla instituti stixiyali jamoatchilik nazorati organidan qonun doirasida faoliyat yurituvchi, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi fundamental institutga aylanib ulgurdi. Tarixiy mirshablik va posbonlik an'analaridan tortib to bugungi "Mahalla yettiligi" konsepsiyasigacha bo'lgan tadrijiy rivojlanish shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklarga qarshi kurashda faqat jazolovchi choralar emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv (ishsizlikni kamaytirish, oilaviy nizolarni hal etish) eng samarali yo'ldir.

Shu bilan birga, tizimda o'z yechimini kutayotgan qator institutsional kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, "Mahalla yettiligi" o'rtasidagi vakolatlar takrorlanishining oldini olish va ijtimoiy profilaktika uchun javobgarlikni aniq chegaralash zarur. Ikkinchidan, mahalla ishini baholashdagi "Sadoqat dilemmasi" (hududni sun'iy "yashil" ro'yxatda saqlab qolish uchun jinoyatlarni yashirish) amaliyotiga barham berish maqsadida reyting tizimi qayta ko'rib chiqilishi kerak. Tizim jinoyat yo'qligini emas, balki jinoyat xavfi aniqlanib, unga qanday huquqiy-ijtimoiy ta'sir ko'rsatilganini ijobiy baholashga o'tishi lozim.

Eng asosiysi, viktimologik profilaktika bo'yicha mahallaning vakolatlarini huquqiy jihatdan kengaytirish davr talabidir. Potensial jabrlanuvchilarni (ayniqsa, oilaviy zo'ravonlik

qurbonlarini) himoya qilishda mahalla faollariga, jumladan xotin-qizlar faoli va mahalla raisiga huquqni muhofaza qiluvchi organlarni kutmasdan tezkor himoya va izolyatsiya choralarini (masalan, dastlabki ogohlantirish aktlarini) qo'llash huquqi berilishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina mahalla faqat rasmiy statistika yig'uvchi organ emas, balki chinakam ma'nodagi "xavfsizlik qalqoni"ga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar (Snoskalar):

- [1] Amir Temur - Buyuk Sarkarda | PDF - Scribd, (Murojaat qilingan sana: 28-yanvar, 2026-yil). Manba havolasi
- [2] Amir Temur – Buyuk Sarkarda va Davlat Arbobi - Scienceweb, (Murojaat qilingan sana: 28-yanvar, 2026-yil). Manba havolasi
- [3] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida"gi 180-son qarori. (lex.uz)
- [4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni. (lex.uz)
- [5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoni. (lex.uz)
- [6] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "Mahalla yettiligi faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-son qarori. (lex.uz)

INNOVATIVE
ACADEMY